

**BOLALARDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY
BOSQICHLARI****Yuldasheva Dilshoda To'liqinova***Farg'ona davlat universiteti**Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish metodlari va yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, bolalarda nutq shakllanishining yoshga xos bo'lgan jihatlari yoritilgan. Maqolada keltirilgan tavsiya va maslahatlardan maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagoglari foydalanishlari mumkin.*

Kalit so'zlar. *Yosh, nutqiy ko'nikma, rivojlantirish, sifat, bosqich, ona tili, faoliyat, ertak, munosabat, o'yin, badiiy adabiyot.*

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi. Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir. Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi. Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar.[1]

Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan

foydalanishlariga yordam beradi. Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida-uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bola nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi.

Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y- harakatlarni uyushtirish kalitidir.

«Haqiqatdan ham, til bilan tafakkur bir-birisiz yashamaydi, - deb yozadi A. M. Borodich – Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashayolmasa ham ular o'zida aynan bir hodisani ifodalaymaydi. Tafakkur- ob'ektiv borliqning intihosi, til esa - fikrni boshqa kishilarga yetqazish va mustahkamlash vositasi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi».[2] Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi: tabiat ob'ektlari bilan tanishtirish faoliyatlarida; savod o'rgatishda; o'yin faoliyatida; ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida. Biroq A.M.Borodich, F.A.Soxin, Ye.I.Tixeeva, O.S.Ushakova, A.P.Usova, A.P.Fedorenko va boshqa tadqiqotchilar ko'rsatib o'tganlaridek, nutqni rivojlantirish mahsus rejalashtirilgan va tashkil etilgan faoliyatlarda amalga oshirilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir.[3] Shu bilan birga, faoliyatlarni tashkil etishda eng ma'qul natijalarga erishish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur bo'ladi: faoliyatlarni ularning maqsadi, mazmuni va o'tqazilish muddatini hisobga olgan holda rejalashtirish; bolalarning analitik-sintetik xarakterdagi nutqiy vazifalarni yechish faoliyatlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash, predmetlar o'rtasida aloqalar o'rnatish, o'xshashliklarini ajratish; tarbiyaviy xarakterdagi aniq masalalarni hal etish faoliyat mazmuni, vaqti va o'tkazish metodini aniq belgilash; bolalarda nutqni shakllantirishga oid faoliyatlarga qiziqish uyg'otish; rejalashtirilgan faoliyatlar o'rtasida izchillikka rioya qilish.

Ma'lumki, nutqda belgilarni qo'llash an'anasi hech kim tomonidan boshqarilmaydi. Vujudga kelgan an'anani eslash va undan foydalanish kerak. Shuning uchun ham, nutqqa ega bo'lish uchun til belgilaridan foydalanish an'anasini (ularning kombinatsiyalari, bir-birini almashtira olishni bilish lozim. Ana shu munosabat bilan tadqiqotchilardan L.P.Fedorenkova G.A. Fomichevalar metodik jihatdan muhim g'oyani ilgari suradi: «Bolani nutqqa o'rgatish, - deb yozadi ular, - unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma'nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtiyom va tuyg'ularni mashq qildirish) borliqni baholashni ifodalashni o'rgatish, adabiyiy

me'yorlarini eslashni osonlashtirishga ko'mak berish demakdir».[4] Bola tomonidan nutqni o'zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga e'tiborimizni qaratdikki, ushbu qo'llanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo'llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e'tiborq aratadilar. Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyluklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur.

MUHOKAMALAR

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o'z xalqining badiiy tilini o'zlashtirib olishlari natijasida ularning to'g'ri og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so'zga qiziqishni tarbiyalash, savod o'rgatishga tayyorlash.

Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug'at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo'lgan nutqiy mahorat va ko'nikmalar belgilangan bo'lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosliqlik) tarbiyalashni ko'zda tutishi lozim.

Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan bo'lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o'quv, o'yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi.

Jamoat tarbiyasi sharoitida ta'lim-bola nutqini shakllantirishning yetakchi vositasi hisoblanadi.

Ona tilini o'qitish – bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug'atni o'zlashtirish, nutqiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning asosiy shakli – ta'limiy faoliyatlardir.

Didaktik maqsadlar bo'yicha quyidagi faoliyat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yangi materialni ma'lum qilish faoliyati;
- bilimlar, mahorat va ko'nikmalar mustahkamlashga oid faoliyatlar;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid faoliyatlar;
- yakuniy faoliyatlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) faoliyatlari.[5]

Bolalarga ona tilini o'qitishga doir faoliyatlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o'tkaziladigan faoliyatlar soni, har bir faoliyatning davomiyligi shunga bog'liq bo'ladi.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir faoliyatlarni didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, sahna ko'rinishlari shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko'ngil ochar tusga, balki albatta ta'lim tusiga ega bo'lishi lozim.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaviylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir faoliyatlar muayyan vazifaga ega – ya'ni, u bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi.[6]

Ta'limiy faoliyatlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

❖ To'g'ri ta'lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola og'zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi;

❖ dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e'tiborini o'ziga jalb qilish, unga so'z, harakat va so'z siz usullar bilan javob bera olishni biladi;

❖ fikrlarini to'liq va noto'liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi;

❖ tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to'qib chiqarishga qiziqqa boshlaydilar;

❖ fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarini, tashbehlar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo'llaydi;

❖ nutqqa tanqidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intiladi, shu tufayli so'z to'qish barham topadi, nutqdagi grammatik hatolar soni kamayadi;

❖ ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etadi.[7]

Bolalardagi ko'plab nutqiy muloqot va ko'nikmalar mashg'ulotlardan tashqarida shakllanadi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlrida bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro'y beradi.

Mehnat jarayonida – xo'jalik-maishiy, qo'l va qishloq xo'jaligi mehnatida bolalarning lug'ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi.

O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug'at, ta'limiy faoliyatlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug'atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Qurilishga oid o'yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo'lgan so'zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini

belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi.

Matnli, harakatchan musiqiy o'yinlar, sahnalashtirish o'yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to'g'ri sur'at, nafas olish, yaxshi diktsiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko'pgina o'yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo'llay boshlaydilar.

Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug'at mustahkamlanadi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o'yinlar nutqiy mahorat va ko'nikmalarni mashq qilishda (iborat uzish, so'zni o'zgartirish, hikoya to'qish va h.q.) qo'llaniladi.

Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya'ni agarda pedagog, ayniqsa kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo'llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug'atdan foydalanishni o'rgatsa bolalarning lug'ati boyidi. Agarda pedagog o'z nutqida tashbeh, qiyoslash, sinonimlar, xalq og'zaki ijodi (maqollar, matallar, sanoq she'rlar)dan keng va mohirona foydalansa, uning nutqi bosiq va ifodali bo'ladi.

Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar kitoblari she'riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so'z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, jaranglayotgan ona nutqning go'zalligini tushunishga yordam beradi.

NATIJALAR

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so'zdan tashqari tasviriy san'at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning qimmatini shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil qiladi, bu esa o'z navbatida tilni o'zlashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Quvonch hissi, hayajonlanganlik, ko'tarinkilik holati, g'ayri oddiy narsani kutish bolalarning qabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab qolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta'sir ko'rsatadi. Suratlar, amaliy san'at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko'p savol beradilar, olgan taassurotlarini atrof-dagilarga aytishga oshiqadilar.

Bolalar kun bo'yi – faoliyatlarda, o'yinlarda, xo'jalik-maishiy va mehnat faoliyatida o'z pedagoglari bilan muloqotda bo'ladilar. O'z-o'zidan bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqiy muhitning rivojlantirish imkoniyatlari butunlay pedagog nutqining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Namunali nutqqa ega bo'lish – bu tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi darajasidir.

Shuning uchun o'z nutqini takomillashtirish haqida qayg'urish

– bo'lajak pedagogning axloqiy va ijtimoiy burchlaridir. U o'zida barcha nutq ko'nikmalarini mukammal shakllantirishi va uni kelgusida bolalarga berishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar, atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to'g'ri talaffuzni, so'zni qo'llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda uchraydigan nutq nomukammalliklarini ham o'zlariga qabul qilib oladilar.

Tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-birlari bilan mazmunli muloqoti, bolalar rivojini rag'batlantiruvchi qulay til muhiti, to'g'ri metodlardan foydalanish–bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirishga oid ishlar muvaffaqiyatining garovidir.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ona tilidagi nutqni rivojlantirishning metodik tamoyillari quyidagilardir:

- aqliy va nutqiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi tamoyili;
- nutqni yaxlit bir tuzilma sifatida rivojlantirish tamoyili;
- nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- bolalarning faol nutqiy amaliyotini ta'minlash tamoyili;
- nutqni rivojlantirishga nisbatan muomalali va amaliy yondashuv tamoyili;
- muloqotning ijobiy va emotsional muhitini ta'minlash tamoyili.[8]

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bola eshitgan nutqqa taqlid qilishidan iborat emas, balki bu bolada muloqot faoliyatini rivojlantirish va muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda bolalarda nutqiy ko'nikmalar shakllanishida bolalar bog'chasidagi ta'limiy faoliyatlar katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalarning erta yoshdan boshlab turli tillarga o'rgatish natijasida ular ko'p tillilik asoslangan til ko'nikmalari shakllanib qolmoqda. Shuning uchun bolalar o'z ona tilini bor go'zalliklari bilan egallashda ortda qolmoqdalar. Bunday holatlarning ommaviy davom etishi esa millatning milliy tili maqomining tushib ketishiga va tilning yo'qolib borishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun tarbiyachi pedagoglar bolalarga o'z ona tili bilan bog'liq xalq og'zaki ijodi namunalarini tanishtirib borishlari doimiy zarurat sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 176-182.

1. A. Vosiljonov (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1 (B8), 99-105. doi: 10.5281/zenodo.7336283
2. Vosiljonov, A. (2022). BASIC THEORETICAL PRINCIPLES OF CORPUS LINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(02), 173-175.
3. E. Najmiddinov, A. Rasujonov, & J. Rahimov (2022). FARG‘ONA VODIYSI SUV HAVZALARIDAGI BALIQLAR GELMINTLARI. *Science and innovation*, 1 (D8), 145-151. doi: 10.5281/zenodo.7335759
4. Najmiddinov, Eldor , Rasuljonov, Adhamjon, & Rahimov, Javohir (2022). FISH HELMINTHS IN FISH RESERVOIRS OF FERGANA VALLEY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 1049-1054.
5. E. Najmiddinov (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА “ИХТИОЛОГИЯ ВА ГИДРОБИОЛОГИЯ” СОҶАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Science and innovation*, 1 (D8), 152-160. doi: 10.5281/zenodo.7335800
6. E. Najmiddinov (2022). TABIATNING MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI BARKAMOL AVLOD BO’LIB SHAKLLANISHIDAGI ANAMIYATI. *Science and innovation*, 1 (B8), 149-154. doi: 10.5281/zenodo.7336353
7. Юлдашев, Э., & Нажмиддинов, Э. (2013). БРАКОНИДЫ (Hymenoptera, Braconidae) РОДА *ROGAS NEES* ФАУНЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ. In *Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов* (pp. 134-136).
8. Нажмиддинов, Э. Х., Кучбоев, А. Э., Мухаммадиев, М. А., & Соатов, Б. Б. (2021). Эколого-морфологические характеристики нематод рода *Rhabdochona*-паразитов обыкновенной маринки. *Теория и практика борьбы с паразитарными болезнями*, (22), 387-393.
9. Kuchboev, A. E., Najmidinov, E. K., Mukhamediev, M. A., Karimova, R. R., & Yildiz, K. (2021). Morphological and ecological features of some nematodes of the genus *Rhabdochona* in marinka obtained from Fergana Valley, Uzbekistan. *Journal of Parasitic Diseases*, 45(4), 1084-1089.
10. Xabibulloxonov, M. Z. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA INFORMATIKA FANINI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O’QITISH. *Conferencea*, 199-202.
11. Dilshodbek O'g'li, R. S. (2022). The Role Of Physical Culture In Providing The Psychological Health Of The Athlete. *Innovative Developments And Research In Education, Canada*.
12. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 256-259.

13. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH–IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 66-70.
14. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Sportchi Psixologik Salomatligiga Ta'sir Etuvchi Omillar. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 117-121.
15. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 215-221.
16. Qurbonova, S. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AQLIY INTELLEKTNING RIVOJLANISHI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 73-79.
17. Курбонова, С. (2022). ПСИХОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШГА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(17), 191-194.
18. Qurbonova, S. (2022, June). ON THE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN PSYCHOLINGUISTICS. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 512-513).
19. Miralimjanovna, Q. S. (2022). О 'SMIRLIK DAVRIDA TURLI XIL QATLAMGA EGA BOLGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 39-44.
20. Miralimjanovna, Q. S. (2022). CHET EL OLIMLARI TOMONIDAN GURUHDAGI О 'SMIRLAR VA AUTSAYDERLAR MUAMOSINI О 'RGANILISHNING OZIGA XOSLIGI. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 33-38.
21. Noxida, D., & Saida, Q. (2022). TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 309-314.
22. Sodirzoda, M. M. (2021). Techniques of using folk proverbs in the cultivation of oral speech of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 481-484.
23. Sodirzoda, M. M. (2021). TO INCULCATE NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ETIQUETTE LESSONS. *Conferencea*, 31-32.
24. Sodirzoda, M. M. (2021). Ways to cultivate the creative thinking of beginners in the classroom through information and communication technologies. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 955-958.
25. Sodirzoda, M. M. (2021). Ways to cultivate the creative thinking of beginners in the classroom through information and communication

technologies. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 955-958.

26. Mukhtoriy, M. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING NUTQINI HIKOYALAR YORDAMIDA O'STIRISHNING MNEMOTEXNIKASI. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 183-188.

27. Sodirzoda, M. M. (2021). WAYS TO USE APHORISMS IN THE CULTIVATION OF SPEECH OF JUNIOR SCHOOL PUPILS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 985-986.

28. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 326-329.

29. Shavkatovna, S. R. N. (2021). METHODOICAL SUPPORT OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 74-76.

30. Shavkatovna, S. R. (2021). DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 97-102.

31. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(2), 235-239.

32. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.

33. Shavkatovna, S. R. (2021). Improvement of methodological pedagogical skills of developing creative activity of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 289-292.

34. Ra'noxon, S. (2022). BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA MATEMATIKAGA MUNOSABAT. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 203-207.

35. Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕНТАЛ АРИФМЕТИКА. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 235-239.

36. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).

37. Dilfuza, S., Nabijonova, F., & Matlubaxon, A. (2022). TA'LIM VA O'QITISH NAZARIYASINING MUHIM JIHATLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(19), 366-372.

38. Erkinovna N. S. Educational Methods in Teaching the Russian Language //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 260-263.

39. Erkinovna, Nurmatova Sadbarkhon. "Educational Methods in Teaching the Russian Language." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.11 (2022): 260-263.
40. Erkinovna, N. S. (2022). Educational Methods in Teaching the Russian Language. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 260-263.
41. Rahmonov, U., Ergashev, A., Nazhmetdinova, M., & Usmonova, S. (2021, November). IN THE FORMATION OF THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. In *Archive of Conferences* (pp. 36-39).
42. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 47-49.
43. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilduzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).
44. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilduzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).
45. Ulugbek, R. (2021, January). AN ANALYSIS OF WORDS WHOSE EMOTIONAL MEANING CHANGES IN MODERN ENGLISH LINGUISTICS. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 131-136).
46. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). Obrazlar Talqinida Lingvistik Imkoniyatlar. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 91-95.
47. Kalandarovna, Y. L. (2022). Identification And Education Of Gifted Children. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 42-47.
48. Yulchiboyeva, L. Q. (2022). IRIM-SIRIM BILAN BOG ‘LIQ TIL BIRLIKLARINING TAHLILIIY O ‘RGANILISHI. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 170-175.
49. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). Obrazlar Talqinida Lingvistik Imkoniyatlar. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 91-95.
50. Sohiba, Z., & Gulnoza, R. (2022). LINGVOKULTUROLOGIYADA “SOG’INCH” KONSEPTINING QO’LLANILISHI VA O’ZIGA XOSLIKLARI. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(8), 711-717.

51. Sohiba, Z., & Gulnoza, R. (2022). MATNLARDA OBRAZLAR SILSILASI VA ULARNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(9), 366-369.
52. To'liqinova, Y. D. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 25-31.
53. Yuldasheva Dilshoda To'liqinova (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY TASVIRLAR ORQALI IZCHIL NUTQNI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 1 (1), 741-750. doi: 10.5281/zenodo.653521
54. Yuldasheva, D. (2021). AGE AND THE SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 124-130.
55. Tulkinova, Y. D. (2021). On the Principle of Simple to Complex in the Development of Speech in Young Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 32-35.
56. Mohinur, D., & Rahimjon, U. (2022). A Study Of Memory Processes And Their Development In Preschool. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 62-65.
57. Rahim, U. (2021, May). SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).
58. Usmonov, R. (2022). O'SMIRLAR XULQIDA NAMOYISHKORLIK G'AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(B8), 127-135.
59. Usmonov, R. (2022). O'SMIRLIK DAVRI SHAXSIGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR. *Science and innovation*, 1(B8), 120-126.
60. Iqboljon, S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUV JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(20), 137-140.
61. Расулов, М. Ф., & оглы Кодиров, Ш. М. (2021). ФАРФОНА ВИЛОЯТИ ЗИЁРАТГОҲЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲА (Пир Сиддиқ ва “Киргил ота мазор” зиёратгоҳлари мисолида). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(8).
62. Rahimjon o'g'li, A. A. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQUIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(2), 116-119.
63. Asqarov Anvarjon Rahimjon o'g'li. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHIDA O'YIN RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYAT SIFATIDA. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 207–209.

64. Askarov, A. (2022). CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL SOCIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT. *Science and innovation*, 1(B8), 87-91.

65. Abdusalom Soliyev, & Ma'Rifatxon Jabborova (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИ ОНГИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ ОНАНГАЛАРГА МОЙИЛЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ ЧОЛГ'УЛАРНИНГ О'РНИ. *Science and innovation*, 1 (1), 637-646. doi: 10.5281/zenodo.652915

66. Kakharovna, A. M., Tadjimatovich, Y. M., Rakhmatovich, S. O., & Mirzahamdamovna, Q. B. (2021). Modern Approaches to the Teaching of Fine Arts. *Solid State Technology*, 64(2), 4250-4254.

67. Nazokat, A., Ibrokhim, Y., & Makhpuzakhon, A. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF FINE ARTS.

68. M. Ahmedbekova (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ИЖОДҚОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САЊАТНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1 (B8), 112-119. doi: 10.5281/zenodo.7336303